QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

2023 - yil 22 - dekabr 147-4-209-Q/23 Shahrisabz shahar hokimligi

Shaharda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, -25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Shahar hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Shaharda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam

tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr- 31 oktabrda;

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvardan – 31 dekabrga qadar o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish shahar komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

- transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

- transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

- maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va

ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglament yoki standart talablariga muvofiqligi;

- gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

- Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

- Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Shahardagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Shahar hokimining 2022-yil 16-dekabrdagi 191-4-209-Q/22-sonli “Shaharda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari E.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz shahar hokimi **Sh.Buriyev**

Shahrisabz shahar hokimining
2023-yil 22-dekabrdagi
147-4-209-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz shahrida transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi:

F.Yangiboyev	- Shahrisabz shahar IIBJXXYHXB avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etishini nazor

at qilish bo‘limi boshlig‘i, mayor

A’zolari:

M.R.Xolbutayev - Shahar mudofaa ishlari bo‘limi Rezervchilar va rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni hisobini olib borish bo‘linmasi boshlig‘i

A.X.G‘aniyev	- Shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i
N.U.Vassiyev	- Shahar IIB YHXB jamoatchilik vakili
	- Qashqadaryo viloyat sinov va sertifikatlash

markazidan shaharga birikti rilgan vakil

T.Muminov - Viloyat transport boshq armasidan shaharga birikti rilgan vakil

- Viloyat “Sanoatkontexnazorat” inspeksiyasidan shaharga birikti rilgan vakil

Shahrisabz shahar hokimining
2023-yil 22-dekabrdagi
147-4-209-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Shahrisabz shahrida mavjud bo‘lgan tashkilot, korxona va avtoxo‘jaliklarga tegishli avtomototransport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Avtoxo‘jalik va tashkilotlar nomi	Joylashgan manzili	Ko‘rikdan o‘tadigan kun	Vaqti	Ko‘rikdan o‘tadigan joyi	Transport vositasi soni
1	"Kesh avtoo‘rgatuvchi" UK	Nukus 69	1.03	8.00	Avtosaroy	3
2	"Azizbek Obidovich" x/k	Fusunkor ko‘cha	1.03	14.00	Avtosaroy	1
3	"Jasmin inter trans" MChJ	Beruniy 36	2.03	8.00	Avtosaroy	1
4	"Suyarov Jaxongir Baxtiyorovich" x/k	Taraqqiyot 55	2.03	14.00	Avtosaroy	2
5	"Gold bridge plyus" MChJ	Do‘stlik 1	3.03	8.00	Avtosaroy	2
6	"Dilnoz shod" MChJ	J.Jalilov 24	3.03	14.00	Avtosaroy	1
7	"Maxammadiev Maqsudbek Sirojiddinovich" x/k	Ipak yo‘li 70	4.03	8.00	Avtosaroy	2
8	"Azizbek Suyunovich" f/x	Farg‘ona 103	4.03	14.00	Avtosaroy	1
9	"Kesh sayyorasi" x/k	Shuxrat 37	5.03	8.00	Avtosaroy	2
10	"Asl yurt farzandi" x/k	Muqumlik 10	5.03	14.00	Avtosaroy	1
11	"Transformer invest" MChJ	A.Qodiriy 12	9.03	8.00	Avtosaroy	10
12	"Shahrisabz loyiha" MChJ	Nizomiy ko‘cha	10.03	8.00	Avtosaroy	2
13	"Pokiza non plyus" MChJ	Beruniy 111	10.03	14.00	Avtosaroy	1
14	Shahrisabz "Vatanparvar"	Sinabog‘ ko‘cha	11.03	8.00	Avtosaroy	15
15	Shahrisabz Agroiqdisodiyot KHK	T.Boxodir 28	12.03	8.00	Avtosaroy	8
16	Shahrisabz ABZ-130 MChJ	Pillakashlik 17	12.03	14.00	Avtosaroy	4
17	"Kesh-Mehri" kuzi ojizlar ishlab chiqarish	Sheroziy 78	15.03	8.00	Avtosaroy	5
18	"Ergash o‘g‘li Abduvasi" MChJ	Mirob ko‘cha	15.03	14.00	Avtosaroy	2
19	"Kesh omadli yashil chirog‘i" UK	X.Baxshi 45	16.03	8.00	Avtosaroy	7
20	"Keshshaxtrans" MChJ	Kapkon ko‘cha	16.03	14.00	Avtosaroy	2
21	"Shahrisabz vino-aroq" AJ	Ipak yo‘li 170	17.03	8.00	Avtosaroy	14
22	"Qarshi neft bazasi" MChJ Shahrisabz filiali	Ipak yo‘li ko‘cha	18.03	8.00	Avtosaroy	12
23	Avtomobilchi MTP MChJ	X.Baxshi 45	19.03	8.00	Avtosaroy	33
24	Axmedov Axtam Buxorovich MChJ	Beruniy 34	23.03	8.00	Avtosaroy	1
25	Maxobat qurilish MChJ	Yangihayot q/q	23.03	14.00	Avtosaroy	4
26	Qashqadaryo Elektr tarmoqlari OXJ	Beruniy ko‘cha	24.03	8.00	Avtosaroy	12
27	Komfort trans MChJ	Fitrat 72	25.03	8.00	Avtosaroy	14
28	«G‘ayratov Sardorbek Zafarovich” MChJ	Dexlaviy 4	26.03	8.00	Avtosaroy	10
29	"Don-xalq rizqi" AJ	Beruniy 111	26.03	14.00	Avtosaroy	14
30	"Kesh zamin qurilish servis" x/k	Beruniy 120	29.03	8.00	Avtosaroy	5

31	"Qarshi navo" MChJ	Ipak yo‘li ko‘cha	29.03	14.00	Avtosaroy	1
32	Rashidov Asliddin Baxtiyarovich	Ipak yo‘li ko‘cha	30.03	8.00	Avtosaroy	2
33	Dustyorov Musurmon Rajabovich MChJ	Gulxaniy 42	30.03	14.00	Avtosaroy	1
34	"Turonbank" AT	Ipak yo‘li 2	31.03	8.00	Avtosaroy	3
35	"Ipak Yo‘li" bank	Pillakashlik 22	31.03	14.00	Avtosaroy	2
36	Amirqulov Sarvar Saidovich x/k	Beruniy ko‘cha	1.04	8.00	Avtosaroy	1
37	Azamat sport sog‘lomlashtirish markazi	Pillakashlik ko‘cha	1.04	14.00	Avtosaroy	1
38	"Shahrisabz maxsus suv drenaj" MChJ	Tutzor 3	2.04	8.00	Avtosaroy	10
39	Trust Falkon servich MChJ	Oybek 10	5.04	8.00	Avtosaroy	1
40	Dilfayz firmasi	Zafarobod 25	5.04	14.00	Avtosaroy	1
41	Kesh-avto-trans MChJ	Almati q/q	6.04	8.00	Avtosaroy	10
42	Mexanizatsiyalashgan kolonna 14 MChJ	Laxutiy 3	7.04	8.00	Avtosaroy	20
43	Shaxrisabz farm MChJ	Beruniy 54	8.04	8.00	Avtosaroy	7
44	Agrokimyohimoya UK	Ipak yo‘li 105	8.04	14.00	Avtosaroy	2
45	"Gold Grand Stone Invest" MChJ	Ma’rifat 43	9.04	8.00	Avtosaroy	1
46	Xumoyun MChJ	Oq saroy 2	9.04	14.00	Avtosaroy	9
47	Xisor Davlat qo‘riqxonasi	Ipak yo‘li 140	12.04	8.00	Avtosaroy	3
48	Ko‘xna kesh yo‘lsoz invest MChJ	Ma’rifat 43	12.04	14.00	Avtosaroy	8
49	Elite karton boks MChJ	Pillakashlik	13.04	8.00	Avtosaroy	1
50	Bandlikka ko‘maklashish markazi	Shahrisabz 21	13.04	14.00	Avtosaroy	1
51	Axmedov Aktam Buxorovich MChJ	Beruniy 34	14.04	8.00	Avtosaroy	1
52	Kesh-Avto-Trans" MChJ	Almati q/q	14.04	14.00	Avtosaroy	10
53	"Xisorakgidroqurilish" MChJ	Pillakashlik 2	15-16.04	8.00	Avtosaroy	70
54	Nosirov Tura Ulashevich x/k	Nekuz ko‘cha	19.04	8.00	Avtosaroy	8
55	"MMX" MChJ	Dustlik 12	19.04	14.00	Avtosaroy	1
56	Oq saroy tekstel MChJ	Beruniy 44	20.04	8.00	Avtosaroy	15
57	"Omadli tanlov" MChJ	Ipak yo‘li 90	21.04	8.00	Avtosaroy	1
58	"Baxtiyor" MChJ	Ipak yo‘li 15	21.04	14.00	Avtosaroy	1
59	"Baxtiyor" MChJ	Ipak yo‘li 15	22.04	8.00	Avtosaroy	1
60	"Islom ota" xususiy savdo firmasi	Uch uyli q/q	22.04	14.00	Avtosaroy	1
61	DSENM	Ipak yo‘li 195	23.04	8.00	Avtosaroy	3
62	"Janubiy-G‘arbiy" Magitral elektr tarmoqlari	Ipak yo‘li 102	26.04	8.00	Avtosaroy	14
63	Oqsuv irrigatsiya tizimi boshqarmasi	Ipak yo‘li ko‘cha	27.04	8.00	Avtosaroy	4
64	"Xisorgeologiya" DUK	Ipak yo‘li 94	28-30.04	8.00	Avtosaroy	83
65	"Kesh profil" xususiy korxonasi	Ipak yo‘li 170	3.05	8.00	Avtosaroy	2
66	Kesh inavatsion avto maktab MChJ	Kasanachi 1	3.05	14.00	Avtosaroy	5
67	Agrotexservis MChJ	Ipak yo‘li 2	4.05	8.00	Avtosaroy	1
68	Xikoyat-kass-savdo xususiy korxonasi	Zingiron 15	4.05	14.00	Avtosaroy	2
69	Kesh avto o‘quv ishlab chiqarish MChJ	Namaton q/q	5.05	8.00	Avtosaroy	6

70	"Al Said Sanjarbek" korxonasi	Sh.Rashidov 12	5.05	14.00	Avtosaroy	4
71	"Uzbektelekom" AK	Furqat 1	6.05	8.00	Avtosaroy	1
72	"Saitov Bekzod" xususiy korxonasi	Beruniy 50	6.05	14.00	Avtosaroy	3
73	Sher Islom inter trans MChJ	Nomozgoh 10	7.05	8.00	Avtosaroy	5
74	Parizoda Saidalievna k/k	Uymovut q/q	7.05	14.00	Avtosaroy	1
75	Ibn Sino xususiy korxonasi	Yuksalish 62	10.05	8.00	Avtosaroy	2
76	Temirov Jamshid Numonovich MChJ	Navruz 2	10.05	14.00	Avtosaroy	1
77	Great future edim MChJ	Ipak yo‘li ko‘cha	11.05	8.00	Avtosaroy	1
78	Qashqarmavjgolden MChJ	Uvaysiy 24	11.05	14.00	Avtosaroy	1
79	"227-XMKK" MChJ	Fusunkor ko‘cha	12.05	8.00	Avtosaroy	2
80	"Kesh Ulug‘bek qurilish" MChJ	Ipak yo‘li ko‘cha	12.05	14.00	Avtosaroy	1
81	Xirot yo‘llari xususiy korxona	Ipak yo‘li ko‘cha	13.05	8.00	Avtosaroy	1
82	Shax invest plast xususiy korxona	Ipak yo‘li ko‘cha	13.05	14.00	Avtosaroy	1
83	Qayum Xaydarov avlodlari x/k	Ipak yo‘li ko‘cha	14.05	8.00	Avtosaroy	1
84	Kesh Ilxom baxt invest x/k	Ipak yo‘li ko‘cha	14.05	14.00	Avtosaroy	1
85	Status darmon farm korxonsi	Ipak yo‘li ko‘cha	17.05	8.00	Avtosaroy	1
86	Tura Asqar o‘g‘li i/ch savdo firmasi	Ipak yo‘li ko‘cha	17.05	14.00	Avtosaroy	1
87	"Yusupov Asadbek Aktamovich" firmasi	Ipak yo‘li ko‘cha	18.05	8.00	Avtosaroy	4
88	Obodonlashtirish departamenti	Ipak yo‘li ko‘cha	19.05	8.00	Avtosaroy	13
89	Shoxjaxon Ozodbek Sa’diev x/k	Ipak yo‘li ko‘cha	20.05	8.00	Avtosaroy	1
90	Xaydarov Ilxom Qayumovich x/k	Ipak yo‘li ko‘cha	20.05	14.00	Avtosaroy	1
91	Mushtariybonu ulgurji savdo firmasi	Ipak yo‘li ko‘cha	21.05	8.00	Avtosaroy	1
92	Shahrisabz bosmaxonasi	G‘.G‘ulom 3	21.05	14.00	Avtosaroy	1
93	General servis x/k	Kichik Novqat q/q	24.05	8.00	Avtosaroy	1
94	Madaniy meros boshqarmasi	Ipak yo‘li 89	24.05	14.00	Avtosaroy	1
95	"Hisor yulduzi" x/k	Nekuz 90	25.05	8.00	Avtosaroy	2
96	Agro Bank ATB	Ipak yo‘li ko‘cha	25.05	14.00	Avtosaroy	1
97	Komfort trans MChJ	Nekus ko‘cha	26.05	8.00	Avtosaroy	13
98	Tadbirkor ishlab chiqarish s/f	Ipak yo‘li ko‘cha	27.05	8.00	Avtosaroy	1
						564

Shahrisabz shahar hokimining
2023-yil 22-dekabrdagi
147-4-209-Q/23-son qaroriga
3-ilova





